



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 4

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

**1. Abdullayev Jamshid Djamilovich**

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO'YISH BILAN BOG'LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI.....5

**2. Баходирова Нилуфар Зафар кизи**

ФЕНОМЕН DATA-DRIVEN ЭКОНОМИКИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....12

**3. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi**

FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVONNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI.....19

**4. Курбанова Лолита Алишеровна**

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИКОМАНДИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....25

**5. Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich**

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI.....35

**6. Abdulxoshimov Shoxruxbek Shuxratjon o'g'li**

XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHDA HUQUQIY KAFOLATLAR VA PROTSESSUAL NIHOYA VOSITALARI.....44

**7. Насритдинова Наргиза Шокиржоновна**

АЙРИМ ҲОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА НОМУСТА ТЕГИШ УЧУН ЖИНОЙИ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ЖИНСИЙ ЭРКИНЛИККА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....51

**8. Рапиқов Хурсанали Юлдошбоевич**

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БЕЗОРИЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАСИ.....58

**9. Sadullayev Jahongir Jamshedovich**

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUIJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT-HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI.....67

**10. Musurmanov Bekzod Raximovich**


TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI.....75

**11. Yusuvalieva Rakhima Yusupovna, Amirkulova Parinamoi Behbud**

LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....82

**12. Бабаджанов Бахтиёр Бекович**

ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК, ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ.....89




**Sadullayev Jahongir Jamshedovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sadullayev98@icloud.com

## SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUJJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT-HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI

**For citation:** Sadullaev Jahongir Jamshedovich. FORGERY OF DOCUMENTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: CRIMINAL AND LEGAL DESCRIPTION AND LIABILITY ISSUES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082362>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida hujjatlarni soxtalashtirishning jinoyat-huquqiy tabiati va javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellektning jinoyat sodir etish vositasi sifatida ishtiroki, uning avtonom qaror qabul qilish xususiyati hamda bu holatda sabab-oqibat bog'lanishini aniqlash muammosi ko'rib chiqiladi. Muallif sun'iy intellektning jinoyat subyekti sifatida tan olish mumkin emasligini, javobgarlik inson omiliga bog'liq holda belgilanishi lozimligini asoslaydi. Shuningdek, hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi doirasida kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari ochib beriladi. Maqolada algoritmik "qora quti" muammosi, transchegaraviy xarakter, raqamli dalillar va ayb shaklini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektdan foydalanish sharoitida jinoyat huquqini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, hujjatlarni soxtalashtirish, jinoyat-huquqiy tavsif, jinoyat subyekti, sabab-oqibat bog'lanishi, algoritmik vositachilik, deepfake texnologiyalari, qasd va ayb shakli, transchegaraviy jinoyat, raqamli dalillar.

**Садуллаев Джахонгир Джамshedovich,**

Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: sadullayev98@icloud.com

## ПОДДЕЛКА ДОКУМЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: КРИМИНАЛЬНОЕ И ЮРИДИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

### АННОТАЦИЯ

В настоящей статье анализируются уголовно-правовая природа подделки документов с использованием технологий искусственного интеллекта и вопросы ответственности. В исследовании рассматривается участие искусственного интеллекта в качестве средства совершения преступления, его способность к автономному принятию решений, а также проблема установления причинно-следственной связи в подобных случаях. Автор обосновывает невозможность признания искусственного интеллекта субъектом преступления

и указывает, что ответственность должна определяться с учётом человеческого фактора. Кроме того, раскрываются теоретические и практические аспекты квалификации подделки документов в рамках статьи 228 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется проблеме алгоритмического «чёрного ящика», трансграничному характеру правонарушений, цифровым доказательствам и установлению формы вины. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости совершенствования уголовного законодательства в условиях активного использования искусственного интеллекта.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, подделка документов, уголовно-правовая характеристика, субъект преступления, причинно-следственная связь, алгоритмическое посредничество, технологии deepfake, умысел и форма вины, трансграничное преступление, цифровые доказательства.

**Sadullaev Jahongir Jamshedovich,**

Independent researcher at Tashkent State University of Law

E-mail: sadullayev98@icloud.com

## FORGERY OF DOCUMENTS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: CRIMINAL AND LEGAL DESCRIPTION AND LIABILITY ISSUES

### ANNOTATION

This article analyzes the criminal law nature of document forgery committed with the use of artificial intelligence technologies and the issues of liability arising therefrom. The study examines the role of artificial intelligence as a means of committing a crime, its autonomous decision-making capacity, and the problem of establishing causation in such cases. The author substantiates that artificial intelligence cannot be recognized as a subject of crime and argues that liability must be determined based on the human factor. The paper also explores the theoretical and practical aspects of qualifying document forgery under Article 228 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Particular attention is given to the problem of the algorithmic “black box,” the transnational character of such offenses, digital evidence, and the determination of the form of guilt. The findings highlight the necessity of improving criminal legislation in the context of the growing use of artificial intelligence.

**Keywords:** artificial intelligence, document forgery, criminal law characterization, subject of crime, causation, algorithmic mediation, deepfake technologies, intent and form of guilt, transnational crime, digital evidence.

Sun'iy intellekt insonning kognitiv funksiyalarini, jumladan o'qitish (o'rganish), ma'lumotlarni tahlil qilish hamda mashinali o'qitish algoritmlari asosida qaror qabul qilish jarayonlarini taqlid etuvchi tizim sifatida tavsiflanadi.

Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan sun'iy intellekt mustaqil subyekt emas, balki jinoyatni sodir etish quroli yoki vositasi sifatida qaraladi, chunki u iroda va qasd kabi jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega psixologik belgilarga ega emas. Ilmiy doktrinada “zaif” sun'iy intellekt (ixtisoslashtirilgan algoritmlar) hamda “kuchli” sun'iy intellekt (o'zini o'zi o'rgatuvchi tizimlar) o'rtasida farq ajratiladi. Bunda avtonom harakatlar xavfi qayd etilsa-da, mazkur tizimlarning huquq subyektligi tan olinmaydi.

Bu holat qator huquqiy muammolarni, ayniqsa avtonom tizimlar tomonidan sodir etiladigan harakatlar uchun jinoiy javobgarlik masalasini keltirib chiqaradi.

Ilmiy doktrinada sun'iy intellekt tizimi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgarlikni belgilashga doir bir nechta yondashuvlar shakllangan. Ularning biriga ko'ra, javobgarlik masalasida asosiy e'tibor tizim operatoriga, ya'ni uni ekspluatatsiya qiluvchi, nazorat etuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi shaxsga qaratiladi. Zarar yetkazilgan taqdirda aynan ushbu shaxsning javobgarligi masalasi ilmiy muhokamalar markazida turibdi [1].

Avtonom sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishi ularning insonning bevosita aralashuvisiz mustaqil qaror qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egaligi bilan tavsiflanadi. Mazkur holat an'anaviy jinoyat-huquqiy konstruktsiyalarni qo'llash imkoniyatiga jiddiy shubha

uyg'otadi, chunki klassik jinoyat huquqi ayb, qasd va iroda kabi subyektiv belgilarga asoslanadi. Avtonom algoritmlar esa texnik jihatdan murakkab bo'lsa-da, mustaqil huquq subyekti sifatida e'tirof etilmaydi [2].

Amaliyotda bu masala ayniqsa yuqori xavf manbai hisoblangan sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, uchuvchisiz transport vositasi ishtirokida yo'l-transport hodisasi sodir etilganida yoki sun'iy intellekt tizimi tomonidan noto'g'ri tibbiy tashxis qo'yilib, shaxsga zarar yetkazilgan holatlarda javobgarlik subyektini aniqlash muammosi yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda aybdor shaxs sifatida texnologiya egasi, uni ishlab chiqqan dasturchi yoki kompaniya, tizimdan foydalanuvchi shaxs yoxud uni ekspluatatsiya qiluvchi operator ko'rib chiqilishi mumkin [3].

Shu bois, avtonom sun'iy intellekt tizimlari ishtirokida sodir etilgan harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash masalasi zamonaviy jinoyat huquqi oldida turgan dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda ayb shaklini aniqlash, sababiy bog'lanishni belgilash hamda nazorat va xavfni boshqarish majburiyatlarini kim bajarishi lozimligini huquqiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar sirasiga yangi tahdidlar – dezinformatsiya (SI tomonidan yaratilgan soxta xabarlar), hujjatlarni qalbakilashtirish kabi qilmishlarni ham kiritish mumkin.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi hujjatlarni soxtalashtirish usullarini tubdan o'zgartirdi. Generativ neyron tarmoqlar, deepfake algoritmlari va avtomatik matn yaratish tizimlari orqali rasmiy hujjatlarning yuqori aniqlikdagi nusxalarini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa jinoyat huquqida klassik hujjat qalbakilashtirish institutining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Chesney va Citronning ta'kidlashicha, deepfake texnologiyalari nafaqat axborot manipulyatsiyasi, balki hujjatlarning ishonchliligini buzish orqali huquqiy tizimlarga bevosita tahdid solidi [4]. Westerlund esa deepfake texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ularning jinoyat sodir etish vositasi sifatidagi xavfini oshirganini qayd etadi [5].

Ma'lumki, milliy jinoyat qonunchiligida hujjatni soxtalashtirish yoki qalbakilashtirish deganda, bilib turib yolg'on hujjatni to'liq tuzish, shuningdek haqiqiy hujjatni to'liq yoki qisman o'zgartirish tushuniladi. Bunday o'zgartirish matnni, sanani, raqamni almashtirish, harf, so'z, ibora yoki raqamlarni tuzatish, joyini o'zgartirish, qo'shimcha kiritish, o'chirish, tozalash yoki kimyoviy yo'l bilan yo'qotib, o'sha joyga boshqa ma'lumotlarni kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin. Hujjatning ayrim qismlarini olib tashlash yoki boshqa qismlarni yopishtirish ham soxtalashtirish sifatida baholanadi. Soxtalashtirish qisman (asl hujjatga turli tuzatishlar kiritish) yoki to'liq (butunlay yolg'on hujjat yaratish) shaklda sodir etilishi mumkin.

Amaldagi qonunchilik hujjatlarida soxta hujjatni tayyorlaganlik uchun ham, uni bilib turib foydalanganlik uchun ham jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Demak, shaxs hujjatni shaxsan tayyorlamagan bo'lsa-da, uning qalbaki ekanligini bilib undan foydalangan taqdirda ham jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Yuqorida qayd etilgan sun'iy intellekt tomonidan qilmishni sodir etishda bunday harakatlar ayrim hollarda jinoyatni bir guruh shaxslar tomonidan yoki xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilishga asos bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish masalasi jinoyat huquqida an'anaviy nazariy konstruktsiyalarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Avvalo, mazkur holatda jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari texnologik vositachilik sharoitida baholanadi. Algoritmning avtonom qaror qabul qilishi inson harakati bilan yuzaga kelgan oqibat o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishini murakkablashtiradi. Shu sababli jinoiy javobgarlikni belgilashda insonning nazorat darajasi, xavfni oldindan ko'ra bilish imkoniyati va algoritmdan maqsadli foydalanish holati asosiy mezon sifatida e'tirof etilishi lozim.

Mazkur muammo, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki rasmiy hujjatlarni tayyorlash yoki qalbakilashtirishning raqamli shakllari mazkur modda dispozitsiyasi mazmuniga mos keladi. Biroq algoritmik vositachilik jinoyat sodir etish usuli sifatida qo'shimcha tahlilni talab qiladi. Shu nuqtai

nazardan, sun'iy intellekt mustaqil jinoyat subyekti emas, balki jinoyat sodir etish vositasi sifatida baholanishi kerak. Ilmiy jihatdan esa mazkur sohada sababiy bog'lanish, ayb shakli va javobgarlikni taqsimlash masalalarini aniqlash zamonaviy jinoyat-huquqiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Bunda obyektiv tomon odatda muayyan harakatlarda – masalan, sun'iy intellekt tizimiga ma'lumot kiritish, algoritmi ishga tushirish kabi harakatlarda ifodalanadi hamda ularning oqibati sifatida zarar yetkazilishi bilan bog'lanadi. Biroq sababiy bog'lanishni aniqlash masalasi sun'iy intellektning “qora quti” xususiyati, ya'ni algoritmlar shaffof emasligi sababli murakkablashadi va maxsus texnik ekspertizani talab etadi. Kvalifikatsiya qiluvchi belgilari sifatida yirik miqdorda zarar yetkazilishi, shuningdek transchegaraviy xususiyat (masalan, SI serverlarining xorijda joylashganligi) e'tiborga olinishi mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni an'anaviy qalbakilashtirish tarkibidan farqli ravishda texnologik vositachilik orqali namoyon bo'ladi. Mazkur holatda jinoyat harakati bevosita inson tomonidan hujjat matnini o'zgartirish yoki qalbakilashtirish bilan emas, balki algoritmik tizimni ishga tushirish, unga ma'lumot kiritish hamda generativ model orqali soxta hujjat yaratish bilan ifodalanadi. Shu sababli obyektiv tomon tarkibiga dasturiy vositani ishga tushirish, parametrlarni belgilash, sun'iy intellekt modeliga ma'lumotlar yuklash va natijada huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan qalbaki hujjatni hosil qilish harakatlari kiradi.

Jinoyatning moddiy tarkibi zarar yetkazilishi bilan bog'liq bo'lib, qalbaki hujjat muomalaga kiritilishi yoki undan foydalanilishi natijasida shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlariga zarar yetkazilishi zarur. Masalan, sun'iy intellekt orqali yaratilgan soxta diplom, litsenziya yoki moliyaviy hujjat iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan obyektiv tomonni baholashda nafaqat soxtalashtirish harakati, balki uning huquqiy oqibatlari ham inobatga olinadi.

Alohida e'tiborga loyiq masala – sababiy bog'liqlikni aniqlashdir. Sun'iy intellekt tizimlari “qora quti” xususiyatiga ega bo'lib, algoritmik qarorlar ichki mexanizmlari shaffof emas. Natijada zarar va operator harakati o'rtasidagi bevosita bog'lanishni aniqlash murakkablashadi. Bunday vaziyatda texnik ekspertiza va raqamli izlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni harakat, texnologik vositachilik va yuzaga kelgan oqibatlar majmuasi bilan tavsiflanadi.

Bunda jinoiy harakat to'g'ridan-to'g'ri matnni o'zgartirish emas, balki algoritmi ishga tushirish, ma'lumot kiritish va generativ model orqali qalbaki hujjat hosil qilishda ifodalanadi. Pagallo ta'kidlaganidek, avtonom yoki yarim avtonom algoritmlar inson harakati bilan bog'langan bo'lsa-da, natija texnik tizim orqali shakllanadi va bu sababiy bog'lanish tahlilini murakkablashtiradi [6].

Hallevy sun'iy intellekt jinoyat subyekti emasligini, balki inson faoliyatini amalga oshirish vositasi sifatida ishtirok etishini asoslaydi [7]. Shu nuqtai nazardan, jinoyatning obyektiv tomoniga quyidagilar kiradi: algoritmi ishga tushirish; ma'lumotlar va parametrlarni kiritish; qalbaki hujjat generatsiyasi; uni muomalaga kiritish yoki foydalanish.

Professor Vesterland deepfake texnologiyalarining yuqori sifatda raqamli qalbaki hujjatlar yaratish imkonini berishi va ularning huquqiy munosabatlarda ishonchga putur yetkazish xavfini qayd etadi [8]. Bu holat jinoyatning moddiy tarkibini, ya'ni zarar yetkazish oqibatini inobatga olishni talab qiladi. Masalan, sun'iy intellekt orqali yaratilgan soxta litsenziya yoki moliyaviy hujjat iqtisodiy zarar keltirishi mumkin.

Boshqa olimlar kiberjinoyatlarda sababiy bog'lanish “texnologik zanjir” orqali shakllanishini ta'kidlab, algoritmlar vositachiligi tufayli zarar va harakat o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash qiyinlashishini ko'rsatadi [9]. Shu bois, bunday jinoyatlarni baholashda texnik ekspertiza, raqamli loglar va algoritm faoliyati tahlili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Rossiya huquqshunoslik doktrinasida Marchenko sun'iy intellekt ishtirokida sodir etilgan harakatlarda jinoiy-huquqiy baholash markazida insonning nazorati va prognozlash imkoniyati turishi lozimligini ta'kidlaydi [10]. Lopatin esa raqamli qalbakilashtirishda “axborot izi” (tsifrovoy sled)ni obyektiv tomonni aniqlashda asosiy dalil sifatida ko'radi [11]. Markaziy Osiyo olimlari,

jumladan, Rustambaev, hujjatlarni qalbakilashtirish jinoyatida asosiy belgi rasmiy hujjatning huquqiy ahamiyati va muayyan huquq yoki majburiyatga ta'siri ekanligini qayd etadi [12].

O'zbekiston Respublikasi JK 228-moddasi dispozitsiyasiga muvofiq, rasmiy hujjatlarni tayyorlash, qalbakilashtirish yoki ulardan foydalanish jinoyat tarkibini tashkil etadi. SI yordamida qalbaki hujjat yaratish mazkur moddada nazarda tutilgan "tayyorlash" yoki "qalbakilashtirish" harakatlarining zamonaviy shakli hisoblanadi. Agar shaxs algoritm orqali soxta diplom, litsenziya yoki boshqa rasmiy hujjatni yaratib, uni muomalaga kiritisa, obyektiv tomon JK 228-modda birinchi qismidagi harakatlar bilan qamrab olinadi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatining obyektiv tomoni harakat, algoritmik vositachilik va yuzaga kelgan huquqiy oqibatlar majmuasi bilan tavsiflanadi.

Subyektiv tomon, qoida tariqasida, sun'iy intellektdan foydalanuvchining to'g'ridan-to'g'ri qasdi bilan tavsiflanadi, ya'ni u algoritm faoliyati bilan bog'liq xavflarni oldindan anglagan holda harakat qiladi. Dastur ishlab chiquvchilar esa algoritmning xavfli xususiyati oldindan ma'lum va bashorat qilinadigan bo'lgan hollarda ehtiyotsizlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Sun'iy intellektning o'zi jinoyat subyektini sifatida tan olinmaydi, chunki unda ayb shakli mavjud emas, biroq u ayrim hollarda og'irlashtiruvchi holatlarni kuchaytiruvchi omil sifatida baholanishi mumkin [13].

Sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatida subyektiv tomon insonning ayb shakli orqali aniqlanadi, chunki algoritm mustaqil iroda va huquqiy ongga ega emas. Shu sababli jinoyat tarkibining ruhiy elementini baholashda sun'iy intellekt emas, balki undan foydalangan shaxsning ichki munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy doktrinada ta'kidlanishicha, avtonom texnologiyalar ishtirokidagi huquqbuzarliklarda ham javobgarlik insonning nazorati va qaror qabul qilish darajasiga bog'liq bo'lib qoladi [14].

Bunday jinoyatlarda, odatda, to'g'ridan-to'g'ri qasd mavjud bo'ladi. Shaxs generativ algoritm orqali qalbaki hujjat yaratayotganini anglaydi va uning huquqiy munosabatlarda qo'llanilishi orqali muayyan huquqqa ega bo'lish yoki majburiyatdan ozod bo'lishni maqsad qiladi. Tadqiqotchi Kalo sun'iy intellekt inson harakatini "kuchaytiruvchi vosita" sifatida xizmat qilishini ta'kidlab, jinoiy natijaga erishishda asosiy omil inson qasdi ekanligini qayd etadi [15].

Ayni paytda, ayrim hollarda ehtiyotsizlik shakli ham istisno etilmaydi. Agar shaxs algoritmning qalbaki hujjat yaratish imkoniyati borligini bilsa yoki bilishi lozim bo'lsa-da, zarur nazorat choralarini ko'rmagan bo'lsa, uning harakatlari ehtiyotsizlik orqali sodir etilgan deb baholanishi mumkin. Professor Abbot esa "oldindan bashorat qilinadigan xavf" kontsepsiyasi orqali aybni aniqlashda shaxsning xavfni anglash imkoniyatini mezon sifatida qo'llashni taklif etadi [16].

O'zbekiston Respublikasi JK 228-moddasi nuqtai nazaridan ham qalbakilashtirish jinoyati qasddan sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga kiradi. Demak, shaxs hujjatning qalbaki ekanligini bilishi va uni muayyan huquqiy natijaga erishish maqsadida qo'llashi shart. Shu tariqa, sun'iy intellekt vositachiligi jinoyatning subyektiv tomonini o'zgartirmaydi, balki aybni aniqlashda insonning nazorat va anglash darajasini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Alohida ahamiyatga ega masala – operator harakatlari yoki harakatsizligi bilan yuzaga kelgan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlashdir. Masalan, operator dasturiy ta'minotni o'z vaqtida yangilamagan yoki tizimdagi nosozlik alomatlarini inkor etgan bo'lsa, uning harakatsizligi jinoiy beparvolik sifatida baholanishi mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarda javobgarlik subyektini masalasi markaziy nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, sun'iy intellekt tizimi huquqiy ma'noda jinoyat subyektini sifatida tan olinmaydi, chunki u mustaqil iroda, huquqiy ong va ayb shakliga ega emas. Ilmiy adabiyotlarda ham ta'kidlanishicha, avtonom texnologiyalar ishtirokidagi huquqbuzarliklarda javobgarlik insonga nisbatan qo'llanilishi lozim [17]. Demak, jinoyat huquqiy baholash markazida inson turishi shart.

Boshqa qator huquqshunoslar qayd etishicha sun'iy intellekt ishtirokida sodir etilgan harakatlarda javobgarlikni belgilashda uchta asosiy mezonni ko'rsatadilar: nazorat darajasi, xavfni oldindan ko'ra bilish imkoniyati va natijadan manfaatdorlik [18]. Agar shaxs algoritmi bevosita

ishga tushirib, qalbaki hujjat yaratish jarayonini boshqargan bo'lsa, u to'g'ridan-to'g'ri ijrochi sifatida javobgar hisoblanadi.

Shu bilan birga, javobgarlik doirasi kengroq bo'lishi mumkin. Agar ishlab chiquvchi xavfli funksionalga ega bo'lgan algoritmni uning ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan anglagan holda muomalaga chiqargan bo'lsa, u ehtiyotsizlik shaklida javobgarlikka tortilishi mumkin. Abbot avtonom tizimlar sohasida "mas'uliyatni taqsimlash" konsepsiyasini ilgari surib, texnologiya yaratish va qo'llash jarayonida ishtirok etgan shaxslar o'rtasidagi vakolat va nazorat chegaralarini aniq belgilash zarurligini ta'kidlaydi [19].

O'zbekiston Respublikasi JK 228-moddasi nuqtai nazaridan jinoyat subyekti aqli raso va qonun bilan belgilangan yoshga to'lgan jismoniy shaxsdir. Sun'iy intellekt mazkur jinoyatda faqat vosita sifatida ishtirok etadi. Shu bois, qalbaki hujjatni yaratgan, uni muomalaga kiritgan yoki undan foydalangan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Algoritmning ishtirok etishi inson javobgarligini istisno etmaydi, balki uning harakatlarini baholashda qo'shimcha tahlilni talab etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sharoitida jinoiy javobgarlik muammosi zamonaviy huquq tizimida eng murakkab va bahsli masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Asosiy qiyinchilik inson harakatlari bilan algoritm tomonidan avtonom tarzda qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan oqibatlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishini aniqlashdan iborat.

An'anaviy jinoyat-huquqiy tushunchalarga ko'ra, jinoyat subyekti sifatida o'z harakatlarining faktik mazmuni va ijtimoiy xavfliligini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs e'tirof etiladi. Biroq mashinali o'qitishning ehtimoliy modellari asosida faoliyat yurituvchi sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash ayb va qasd kategoriyalarining an'anaviy chegaralarini noaniqlashtiradi hamda ularning mazmuniy doirasini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [20].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi hujjatlarni soxtalashtirish sohasida mutlaqo yangi xavf va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy qalbakilashtirishdan farqli ravishda, generativ sun'iy intellekt tizimlari yuqori aniqlikdagi raqamli hujjatlar, biometrik identifikatsiya vositalari, elektron imzo nusxalari va davlat reyestrlariga o'xshash interfeyslarni yaratish imkonini bermoqda. Bu esa huquqiy ishonch instituti – ya'ni hujjatlarning haqiqiylikiga asoslangan muomala barqarorligiga jiddiy zarba beradi.

Floridi sun'iy intellekt texnologiyalarini "informatsion muhitni qayta shakllantiruvchi omil" sifatida baholab, ularning huquqiy tizimlar uchun strukturaviy xavf tug'dirishini ta'kidlaydi [21]. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, moliyaviy operatsiyalar va ta'lim tizimida qo'llaniladigan hujjatlarning qalbakilashtirilishi huquqiy muomalada tizimli beqarorlikni keltirib chiqaradi.

M.Gudman sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan manipulyatsiya vositalari jinoyatchilikni "miqyoslash" imkonini berishini qayd etadi [22]. Ya'ni bitta algoritm yordamida minglab qalbaki diplomlar, pasport nusxalari yoki moliyaviy sertifikatlar qisqa vaqt ichida yaratilishi mumkin. Bu holat jinoyatning ommaviy tus olishi va transchegaraviy xususiyat kasb etishiga olib keladi. Shuningdek, Zubof raqamli platformalar infratuzilmasi orqali ma'lumotlar ustidan nazoratning zaiflashuvi hujjatlarning soxtalashtirilishi bilan bog'liq xavflarni kuchaytirishini ko'rsatadi [23]. Bunday sharoitda huquqni qo'llash organlari uchun asosiy muammo – jinoyatning manbaini aniqlash, serverlarning boshqa yurisdiksiyada joylashuvi hamda algoritmik vositachilik sababli dalillarni yig'ish murakkablashuvidir.

Shu tariqa, sun'iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish nafaqat alohida shaxsiy zarar, balki tizimli huquqiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa jinoyat-huquqiy mexanizmlarni modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Sun'iy intellekt vositasida hujjatlarni soxtalashtirishni jinoyat-huquqiy baholashda an'anaviy modelni mexanik tarzda qo'llash yetarli emas. Zamonaviy doktrina jinoyat tarkibini algoritmik vositachilikni inobatga olgan holda qayta talqin qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Jumladan, Bostrom sun'iy intellekt tizimlarining avtonom qaror qabul qilish qobiliyati javobgarlikni belgilashda "nazorat prinsipi"ni markaziy mezon sifatida qo'llashni taklif etadi [24]. Ya'ni, qaysi shaxs tizim ustidan real nazoratga ega bo'lgan bo'lsa, jinoiy oqibatlar uchun javobgarlik ham o'sha subyekt zimmasiga yuklatiladi.

Shvab texnologik transformatsiya davrida huquq tizimi “normativ moslashuvchanlik”ni namoyon etishi lozimligini qayd etadi [25]. Bu, xususan, jinoyat tarkibini talqin qilishda sun’iy intellektdan foydalanish holatini kvalifikatsion belgi sifatida e’tirof etishni nazarda tutadi.

Professor Kups algoritmik tizimlar ishtirokidagi jinoyatlarda javobgarlikni aniqlashda “funktional yondashuv”ni ilgari suradi [26]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, jinoyat sodir etilishida kimning funksional roli ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, javobgarlik ham shunga mutanosib taqsimlanadi. Masalan, foydalanuvchi qalbaki hujjatni yaratish va undan foydalanish tashabbusini bildirgan bo‘lsa, u asosiy ijrochi hisoblanadi; ishlab chiquvchi esa xavfni oldindan bilgan taqdirdagina qo‘shimcha javobgar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JK 228-moddasi doirasida ham baholash inson omiliga asoslanadi. Sun’iy intellekt jinoyat sodir etish vositasi sifatida qatnashadi, biroq jinoyat tarkibi inson harakati orqali shakllanadi. Shu bois, jinoyat-huquqiy baholash modeli uch bosqichli bo‘lishi maqsadga muvofiq: insonning faol harakati; algoritmik vositachilik; huquqiy ahamiyatga ega oqibat.

Bunday integrativ model innovatsiyalarni cheklamasdan, xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi hamda jinoyat huquqining klassik tamoyillari bilan texnologik taraqqiyot o‘rtasida muvozanatni saqlaydi. Muammoning asosiy jihati shundaki, algoritmning ichki ishlash mexanizmi shaffof emasligi sababli, jinoiy natija aynan qaysi bosqichda va qay tarzda shakllanganini aniqlash qiyinlashadi. Shuningdek, transchegaraviy serverlar, raqamli izlarning yo‘qolishi va bir necha ishtirokchilar mavjudligi javobgarlikni aniqlashni yanada murakkablashtiradi. Bu esa jinoyat-huquqiy kvalifikatsiyada noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarning aksar qismi firibgarlik tarkibi doirasida kvalifikatsiya qilinmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan g‘ayriqonuniy foydalanish firibgarlikdan tortib kiberxujumlargacha bo‘lgan yangi jinoyat turlarini shakllantirmoqda va jinoyat qonunini moslashtirishni talab etmoqda.

Jinoyat-huquqiy baholashda asosiy e’tibor insonga – jinoyat subyektiga qaratiladi, biroq algoritmik xavflar inobatga olinadi. Qonunchilikni takomillashtirish yangi jinoyat tarkiblarini ishlab chiqish, maxsus ekspertizani joriy etish hamda innovatsiyalar va xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlashni nazarda tutadi. Istiqbolda esa milliy normalarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish orqali global tahdidlarni kamaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt yordamida hujjatlarni soxtalashtirish zamonaviy jinoyatchilikning yangi shakli bo‘lib, u an’anaviy jinoyat-huquqiy institutlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Sun’iy intellekt mustaqil jinoyat subyekti sifatida e’tirof etilmasligi lozim, chunki unda huquqiy ma’nodagi iroda va ayb shakli mavjud emas. Jinoiy javobgarlik ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs algoritmni ishga tushirgan, undan foydalangan yoki xavfli funksionalni nazorat qilmagan shaxs zimmasiga yuklanishi shart.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasida sun’iy intellekt orqali sodir etilgan qalbakilashtirish holatlarini kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida kiritish;

ikkinchidan, algoritmik shaffoflik va raqamli ekspertiza institutini rivojlantirish;

uchinchidan, transchegaraviy raqamli jinoyatlarga nisbatan xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish;

to‘rtinchidan, sun’iy intellekt xavflarini inobatga olgan holda jinoyat-huquqiy doktrinani takomillashtirish.

## Iqtiboslar:

1. Ответственность искусственного интеллекта в правовом поле // URL: <https://dgtlaw.ru/analytic/otvetstvennostiskusstvennogo-intellekta-v-pravovom-pole> (Liability of Artificial Intelligence in the Legal Framework // URL: <https://dgtlaw.ru/analytic/otvetstvennostiskusstvennogo-intellekta-v-pravovom-pole>)

2. Цирхова К. В. Проблема искусственного интеллекта как субъекта уголовной ответственности // Научный Лидер. 2025. №32 (233). URL: <https://scilead.ru/article/9829-problemaisiskusstvennogo-intellekta-kak-subekt> (Tsirkhova, K. V. The Problem of Artificial

- Intelligence as a Subject of Criminal Liability // *Scientific Leader*. 2025. No. 32 (233). URL: <https://scilead.ru/article/9829-problemaisustusvennogo-intellekta-kak-subekt>)
3. Папышева Елена Сергеевна, Искусственный интеллект и уголовная ответственность: проблемы привлечения (сравнительно-правовой анализ), *International Criminal Law and International Justice* № 03/2023. (Papysheva, Elena Sergeevna. Artificial Intelligence and Criminal Liability: Issues of Prosecution (Comparative Legal Analysis), *International Criminal Law and International Justice*, No. 03/2023.)
  4. Chesney, R., & Citron, D. (2019). Deepfakes and the New Disinformation War. *Foreign Affairs*, 98(1), 147–155.
  5. Westerlund, M. (2019). The emergence of deepfake technology. *Technology Innovation Management Review*, 9(11), 39–52.
  6. Pagallo, U. (2013). *The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts*. Springer, p. 93.
  7. Hallevy, G. (2010). *The Criminal Liability of Artificial Intelligence Entities*. *Akron Intellectual Property Journal*, 4(2), 174–201.
  8. Westerlund, M. (2019). The emergence of deepfake technology. *Technology Innovation Management Review*, 9(11), p. 42.
  9. Wall, D. S. (2007). *Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age*. Polity Press, p. 58.
  10. Марченко, М.Н. (2021). Искусственный интеллект и уголовное право. *Журнал российского права*, №5, с. 47. (Marchenko, M. N. (2021). Artificial Intelligence and Criminal Law. *Journal of Russian Law*, No. 5, p. 47.)
  11. Лопатин, В.Н. (2020). Правовые проблемы применения искусственного интеллекта. *Государство и право*, №9, с. 52. (Lopatin, V. N. (2020). Legal Issues of the Application of Artificial Intelligence. *State and Law*, No. 9, p. 52.)
  12. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм/М.Рустамбаев. - Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. –Б.214-215. (Rustambaev, M. Kh. Commentaries on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special Part / M. Rustambaev. – Tashkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – pp. 214–215.)
  13. Корбут Наталья Викторовна. Противоправное использование искусственного интеллекта: уголовно-правовая оценка // *Universum: экономика и юриспруденция*. 2026. №1 (135). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/protivopravnoe-ispolzovanie-iskusstvennogo-intellekta-ugolovno-pravovaya-otsenka> (Korbut, Natalya Viktorovna. Unlawful Use of Artificial Intelligence: Criminal Law Assessment // *Universum: Economics and Law*. 2026. No. 1 (135). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/protivopravnoe-ispolzovanie-iskusstvennogo-intellekta-ugolovno-pravovaya-otsenka>)
  14. Sartor, G., & Lagioia, F. (2020). The impact of AI on criminal law. *European Parliament Study*, p. 14.
  15. Calo, R. (2015). Robotics and the Lessons of Cyberlaw. *California Law Review*, 103(3), p. 546.
  16. Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot*. Cambridge University Press, p. 36.
  17. Hildebrandt, M. (2015). *Smart Technologies and the End(s) of Law*. Edward Elgar, p. 205.
  18. Gless, S., Silverman, E., & Weigend, T. (2016). If Robots Cause Harm. *Boston University Law Review*, 96, p. 420.
  19. Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot*. Cambridge University Press, p. 36.
  20. Рузиев Б.Х. Субъект преступления в условиях цифровизации. // Вестник Ташкентского государственного юридического университета. —2023. —No 4. (Ruziev, B. Kh. The Subject of Crime in the Context of Digitalization // *Bulletin of Tashkent State University of Law*. 2023. No. 4.)
  21. Floridi, L. (2014). *The Fourth Revolution*. Oxford University Press, p. 94.
  22. Goodman, M. (2016). *Future Crimes*. Anchor Books, p. 110.
  23. Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism*. PublicAffairs, p. 214.
  24. Bostrom, N. (2014). *Superintelligence*. Oxford University Press, p. 137.
  25. Schwab, K. (2017). *The Fourth Industrial Revolution*. Crown Business, p. 56.
  26. Koops, B. J. (2010). Criminal Law and the Regulation of Cyberspace. *Computer Law & Security Review*, 26(3), p. 324.

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

### JOURNAL OF LAW RESEARCH

#### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

#### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

#### Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.